

TURIZM SEKTORINING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA

*Singapur Menejmenti rivojlantirish instituti
bo'lim boshlig'i*

Tashpulatov Xurshid Baxtiyarovich

hurshid.nurafshon@gmail.com

90 017 5133

Annotatsiya: *Ushbu maqola turizm sektorining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan. Turizm industriyasi turar joy, transport xizmatlari, oziq-ovqat va ichimliklar, chakana savdo va turli tadbirlarni birlashtirgan kompleks iqtisodiy va madaniy soha sifatida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Toshkent viloyati misolida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan amaliy ishlar tahlil qilingan: turistik zonalar, tog'-chang'i majmualari, mehmonxonalar, dam olish maskanlari va transport yo'nalishlari orqali barqaror turist oqimi ta'minlanishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar va onlayn bronlash tizimlarining joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirishdagi rolga alohida e'tibor qaratilgan.*

Shuningdek, maqolada Ispaniya, Turkiya va Yaponiya kabi davlatlarning turizmni barqaror rivojlantirish tajribalari keltirilgan, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni muvozanatli rivojlantirish bo'yicha amaliyotlari tahlil qilingan. Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston uchun barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan: davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekoturizm va madaniy yo'nalishlarga ustuvorlik berish, mahalliy aholini turizm sohasida faol ishtirokchi sifatida jalb qilish.

Maqola turizm sektorining barqaror rivojlanishi uchun amaliy va ilmiy asoslangan tavsiyalarni taqdim etadi va mamlakatimiz turizm siyosatini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *turizm sektori, barqaror rivojlanish, turizm infratuzilmasi, davlat-xususiy sheriklik, ekoturizm, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba.*

Annotatsiya: *This article is dedicated to the study of factors influencing the sustainable development of the tourism sector. The tourism industry is analyzed as a complex economic and cultural field that integrates accommodation, transportation services, food and beverage provision, retail trade, and various recreational activities. The article examines practical measures undertaken to develop tourism infrastructure in the Tashkent region, including tourist zones, ski resorts, hotels, recreation centers, and transportation routes, which contribute to ensuring a stable flow of tourists. Special attention is given to the role of digital technologies and online booking systems in improving service quality.*

Additionally, the experiences of countries such as Spain, Turkey, and Japan in promoting sustainable tourism are presented, with an analysis of their practices aimed at balancing economic, social, and ecological factors. Based on foreign experience, strategic recommendations for Uzbekistan's sustainable tourism development are proposed, including strengthening public-private partnerships, implementing digital technologies, prioritizing ecotourism and cultural routes, and actively involving local communities as participants in the tourism sector.

The article provides practical and scientifically grounded recommendations for the sustainable development of the tourism sector and holds significant scientific and practical value for the advancement of Uzbekistan's tourism policy.

Keywords: *tourism sector, sustainable development, tourism infrastructure, public-private partnership, ecotourism, digital technologies, international experience.*

Turizm industriyasi turar joy, transport, oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlari, chakana savdo do'konlari, shuningdek, turli animatsion va tadbir faoliyatlarini birlashtirgan kompleks iqtisodiy va madaniy soha sifatida rivojlanmoqda. Zamonaviy turizm faqat iqtisodiy daromad manbai bo'lib qolmay, balki jamiyatning madaniy, ekologik va ijtimoiy rivojida ham sezilarli rol o'ynaydi. Texnologik taraqqiyot, urbanizatsiya, aholi sonining o'sishi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligining uzayishi, pullik ta'til va sayohat erkinligi kabi omillar turizm sektori o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sotsial xavfsizlik, turizm madaniyatining shakllanishi, tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylash, iqtisodiy barqarorlik ham turizm rivojida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda turizm sektorining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratiladi: insonlarning bo'sh vaqtlarning ko'payishi, daromadlar darajasining oshishi, haq to'lanadigan ta'til olish huquqi, texnologik yangilanishlar, urbanizatsiya, sayohat erkinligi, yo'lovchi tashish transportlari imkoniyatlari, shuningdek, tabiiy va madaniy resurslarning saqlanishi. Ushbu omillarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda, xususan Toshkent viloyatida turizm sektorini barqaror rivojlantirish bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatning tabiiy-iqlimiy sharoitlari, tarixiy-madaniy merosi va infratuzilma salohiyati turizm industriyasi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. So'nggi yillarda "Chorvoq" erkin turistik zonasi, "Amirsoy" tog'-chang'i majmuasi, "Navqiron" dam olish maskanlari, Xo'jakent MFYda umumiy qiymati 134 mln. AQSh dollarini tashkil qiladigan xizmat ko'rsatish majmuasi: mehmonxona, restoran, diskoteka, spasalon, sport kompleksi, avtoturargohlar faoliyati viloyatda turizmning mavsumiy emas yil davomida barqaror turist oqimini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 74 ta turagent va 100 ta turoperatorlar, 9 ta axborot markazlari mahalliy va xorijiy turistlarga xizmat qilib kelmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent viloyatida transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, ichki va xalqaro transport yo'nalishlarini kengaytirish, turizm obyektlariga olib boruvchi yo'llarni rekonstruksiya qilish ishlari ham barqaror rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, Toshkent – Chorvoq – Burchmulla yo'nalishida muntazam avtobuslar qatnovlari, shuningdek, Toshkent – Chorvoq yo'nalishida poezdlar qatnovi sayyohlar oqimini oshirishga yordam bermoqda.

Viloyatda mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari sifatining oshishi, xususiy sektor ishtirokining kengayishi ham turizm industriyasining raqobatbardoshligini mustahkamlovchi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, 51 ta mehmonxona (31 493 o'rin), 76 ta dam olish maskani (6 952 o'rin), 1 037 ta oilaviy mehmon uylari (9 014 o'rin), 112 ta hosteller (5 821 o'rin) faoliyat yuritmoqda.⁵⁴ Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari va turizmni targ'ib etuvchi mobil ilovalarning joriy etilishi xizmat sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

2025-yilning yanvar – oktabr oylarida viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar 1 mln. 232 ming nafarni, mahalliy turistlar 16 mln. 964 ming nafarni tashkil etdi. Turizm xizmatlari eksporti 352 mln. AQSh dollariga yetkazildi.⁵⁵

Turizm sektorining barqaror rivojlanishi bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasida muvozanatni saqlash zarur. Masalan, Ispaniya turizm industriyasi yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 12 foizini tashkil etadi va mamlakat iqtisodiyotiga yiliga 180 milliard yevrodan ortiq daromad keltiradi.⁵⁶ Ispaniya hukumati bu yutuqqa erishishda "barqaror turizm" konsepsiyasiga tayanib, qirg'oqbo'yi hududlarda ekologik muvozanatni saqlagan holda turistik infratuzilmani rivojlantirish siyosatini amalga oshirgan.

Turkiya tajribasida esa, turizm sektorining o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida xususiy sektor va davlat o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining takomillashgani qayd etiladi. Turkiya 2000-yillardan buyon turizmni iqtisodiy o'sishning strategik drayveri sifatida belgilab, "Public-Private Partnership (PPP)" asosida 1000 dan ortiq turistik loyihalarni amalga oshirdi. Natijada, 2024-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 56,7 million nafardan oshdi,⁵⁷ turizm daromadlari esa 54 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.⁵⁸

Yaponiya tajribasi ham O'zbekiston uchun o'rnak bo'la oladi. Bu mamlakatda "Local Revitalization through Tourism" dasturi doirasida kichik shahar va qishloqlarda mahalliy aholining faol ishtirokida ekoturizm va madaniy merosni asrashga qaratilgan

⁵⁴ Toshkent viloyati turizm boshqarmasining joriy arxividan.

⁵⁵ Toshkent viloyati turizm boshqarmasining joriy arxividan.

⁵⁶ Spanish Tourism Satellite Account. Year 2023. 26 December 2024. https://www.ine.es/dyngs/INEbase/en/operacion.htm?c=estadistica_C&cid=1254736169169&idp=1254735576863&menu=ultiDatos&utm_source olingan sana: 12.10.2025.

⁵⁷ Turkish Tourism: 4 th World Power in 2024 with 56,7 million Tourist – Reflections for 2025. 27.06.2025. <https://www.tornosnews.gr/en/tourism-businesses/markets/52086-turkish-tourism-4th-world-power-in-2024-with-567-million-tourists-%E2%80%93-reflections-for-2025.html> olingan sana: 13.11.2025.

⁵⁸ Turkey tourism revenues rise 8,3% to \$61 billion last year. January 31, 2025. <https://www.reuters.com/world/middle-east/turkey-tourism-revenues-rise-83-61-bln-last-year-2025-01-31> olingan sana: 10.10.2025.

tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi. Natijada, 2023-yilda Yaponiya bo'ylab 31 milliondan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan, ularning 37 foizi ekologik yoki madaniy yo'nalishdagi marshrutlarni tanlagan.⁵⁹

Ushbu xorijiy tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim xulosalar beradi. Xususan, mamlakatimizda barqaror turizmni rivojlantirishda:

- davlat-xususiy sheriklik asosida yangi turistik infratuzilma yaratish;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish;
- ekoturizm va madaniy yo'nalishlarga ustuvorlik berish;
- mahalliy aholini iqtisodiy faol ishtirokchi sifatida jalb etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, turizm sektorining barqaror rivojlanishi — zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, turizmni barqaror rivojlantirishda davlat siyosati, xususiy sektor ishtiroki va mahalliy aholining manfaatdorligi o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ispaniya tajribasida ekologik barqarorlik tamoyillari, Turkiya amaliyotida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, Yaponiya modelida esa mahalliy jamoalarning faolligi turizm sohasining uzoq muddatli o'sishini ta'minlovchi omillar sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

4. Toshkent viloyati Turizm boshqarmasi joriy arxivi.

INTERNET MANBALARI:

3. Spanish Tourism Satellite Account. Year 2023. 26 December 2024. <https://www.ine.es/>

4. Turkish Tourism: 4 th World Power in 2024 with 56,7 million Tourist – Reflections for 2025. 27.06.2025. <https://www.tornosnews.gr/en/tourism-businesses/>

5. Japan tourism statistics. Visitors Arrivals to Japan and Japanese Overseas Travelers. September 2025. <https://statistics.jnto.go.jp/en/graph/>

⁵⁹ Japan tourism statistics. Visitors Arrivals to Japan and Japanese Overseas Travelers. September 2025. <https://statistics.jnto.go.jp/en/graph/> olingan sana: 13.11.2025.